

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№10

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025 oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 204 sahifa.
2025-yil, 11-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY TAJRIBASI	37
Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA‘LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA‘RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA‘LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA‘LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA‘MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
<i>Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li</i>	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
<i>Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich</i>	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА.....	115
<i>Ягудин Дмитрий Рустамович</i>	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI.....	123
<i>NasimdjanoV Yunusjon Zoxidovich</i>	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
<i>Abduraimova Nigora Abdugapparovna</i>	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
<i>Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li</i>	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ.....	140
<i>Мансурова Сайёра Бахтияровна</i>	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
<i>Xolikova Oydin Olimjonovna</i>	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
<i>Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich</i>	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES.....	158
<i>Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi</i>	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
<i>Suyunov Asror Baxtiyorovich</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOYILLARI.....	171
<i>Z.Teshayev</i>	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
<i>Ismailov Allayor Rashidovich</i>	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
<i>Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li</i>	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
<i>Исмагулова Гульмира Нуралиевна</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI.....	193
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILYIY MEXANIZMLARI.....	198
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i>	



O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILYIY MEXANIZMLARI

Xudoyorov Lochinbek Bahromovich

Korrupsiyaga qarshi kurashish "Kompleks-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i, PhD,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

lochinbek797@gmail.com

ORCID: 0009-0006-8089-800X

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston sharoitida xizmatlar sifatini oshirishda raqamli transformatsiyaning institutsional va tashkiliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Davlat siyosati va tartibga solish mexanizmlarining raqamli xizmatlar ekotizimini shakllantirishdagi o'rnini, shuningdek, xususiy sektor hamda davlat-xususiy sheriklik asosida vujudga kelayotgan tashkiliy mexanizmlar yoritiladi. Bank, transport, sog'liqni saqlash va turizm sohaslarida xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha amaliy tajribalar o'rganilgan. Tadqiqot natijasida xizmatlar sifatini oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan institutsional yondashuvlar hamda raqamli transformatsiya jarayonlarining uyg'unlashuv modeli ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv xizmatlar sifatini jahon standartlariga moslashtirish, innovatsion yechimlarni joriy etish va xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, xizmatlar sifati, institutsional mexanizmlar, davlat siyosati, davlat-xususiy sheriklik, tashkiliy mexanizmlar, bank tizimi, transport, sog'liqni saqlash, turizm.

Abstract: This article analyzes the institutional and organizational mechanisms of digital transformation in improving the quality of services in Uzbekistan. The role of state policy and regulatory mechanisms in shaping the digital services ecosystem, as well as organizational mechanisms developed on the basis of the private sector and public-private partnerships, is examined. Practical experiences in improving the quality of services in the banking, transport, healthcare, and tourism sectors are discussed. The study proposes a model of institutional approaches based on public-private sector cooperation and the integration of digital transformation processes. This approach contributes to aligning the quality of services with international standards, implementing innovative solutions, and enhancing service efficiency.

Keywords: digital transformation, quality of services, institutional mechanisms, state policy, public-private partnerships, organizational mechanisms, banking system, transport, healthcare, tourism.

Аннотация: В статье анализируются институциональные и организационные механизмы цифровой трансформации в повышении качества услуг в условиях Узбекистана. Рассматривается роль государственной политики и механизмов регулирования в формировании экосистемы цифровых услуг, а также организационные механизмы, создаваемые на основе частного сектора и государственно-частного партнерства. Изучен опыт повышения качества услуг в банковской сфере, транспорте, здравоохранении и туризме. В ходе исследования разработана модель институциональных подходов, основанная на государственно-частном сотрудничестве и интеграции процессов цифровой трансформации. Такой подход способствует приведению качества услуг в соответствие с мировыми стандартами, внедрению инновационных решений и повышению эффективности обслуживания.

Ключевые слова: цифровая трансформация, качество услуг, институциональные механизмы, государственная политика, государственно-частное партнерство, организационные механизмы, банковская система, транспорт, здравоохранение, туризм.

KIRISH

XXI asrda jahon xo'jaligining asosiy rivojlanish yo'nalishlaridan biri – raqamli iqtisodiyot va uning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan xizmatlar sektorining transformatsiyasidir. Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng dinamik rivojlanayotgan bo'g'ini sifatida nafaqat yalpi ichki mahsulotda, balki bandlik va aholi turmush



darajasini yaxshilashda ham muhim rol o'ynamoqda. Shu nuqtai nazardan, xizmatlar sifatini oshirish masalasi O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida raqamli transformatsiya jarayonlari izchil olib borilmoqda. Mazkur strategiyada davlat boshqaruvi, moliya, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim va turizm sohalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali xizmatlar sifatini oshirish hamda ularni xalqaro talab va standartlarga moslashtirish vazifalari belgilangan. Ayniqsa, xizmatlar sifatini yaxshilashda institutsional mexanizmlar (davlat siyosati, normativ-huquqiy tartibga solish, davlat organlari faoliyati) va tashkiliy mexanizmlar (xususiy sektor tashabbuslari, davlat-xususiy sheriklik, innovatsion boshqaruv shakllari) ning o'zaro uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, zamonaviy sharoitda xizmatlar sifati iste'molchi ehtiyojlari, global raqobat, texnologik yangiliklar va xalqaro tajriba bilan chambarchas bog'liq. Xizmat ko'rsatishda sifat ko'rsatkichlari faqat xizmatning texnik darajasi bilan emas, balki iste'molchi bilan o'zaro munosabat, qulaylik, tezkorlik, shaffoflik va xavfsizlik bilan ham belgilanmoqda. Shu sababli, raqamli transformatsiya xizmatlar sektorini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish imkonini bermoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – O'zbekiston sharoitida xizmatlar sifatini oshirishda raqamli transformatsiyaning institutsional va tashkiliy mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilish, davlat siyosati va xususiy sektor hamkorligi tajribasini ko'rib chiqish hamda xizmatlar sohalarida raqamli transformatsiya va institutsional hamkorlikning uyg'unlashuv modelini taklif etishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sifatini oshirish va raqamli transformatsiyaning institutsional mexanizmlarini o'rganish masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham keng tadqiq etilgan.

Jahon banki hisobotida ta'kidlanishicha, raqamli transformatsiya davlat xizmatlarini samarali tashkil etish, xizmatlar sifatini oshirish va iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy mexanizmlardan biridir. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning global yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 15 foizdan oshgan bo'lib, ayniqsa bank-moliya, transport-logistika va sog'liqni saqlash sohalarida xizmatlar sifatining raqamli yechimlar asosida oshirilishi kuzatilmoqda.

Porter va Heppelmann o'z tadqiqotida "raqamli xizmatlar ekotizimi" tushunchasini ilgari surib, bunda davlat siyosati, xususiy sektor innovatsiyalari va iste'molchi xulq-atvori o'zaro integratsiyada namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Brynjolfsson va McAfee esa raqamli transformatsiyaning xizmatlar sifatiga ta'sirini tahlil qilib, sun'iy intellekt va big data texnologiyalari mijozlar ehtiyojini chuqurroq o'rganish va xizmatlarni moslashtirish imkonini berishini qayd etadi.

O'zbekiston olimlari ham mazkur yo'nalishda izlanishlar olib bormoqdalar. Karimov A. va Rustamov B. "Raqamli iqtisodiyot va xizmatlar sohasi rivojlanishi" nomli asarlarida xizmatlar sifatini oshirishda davlat siyosati, raqamli infratuzilma va xususiy sektorning innovatsion tashabbuslarini uyg'unlashtirish zarurligini asoslab bergan. Shuningdek, Ahmedov M. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sog'liqni saqlash xizmatlarida telemeditsina va elektron retsept tizimining samaradorligi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Hukumat qarorlarida ham xizmatlar sifatini oshirish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli¹ Farmon – "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida bank, transport, sog'liqni saqlash va turizm sohalarida raqamli xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda xizmatlar sifatini oshirishda raqamli transformatsiyaning institutsional va tashkiliy mexanizmlari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Dastlab ilmiy adabiyotlar nazariy tahlil qilinib, xizmatlar sifatini oshirishda davlat siyosati va raqamli texnologiyalarning o'рни aniqlashtirildi. Keyinchalik metodologik sintez asosida institutsional hamkorlik, davlat-xususiy sheriklik va raqamli innovatsiyalarning xizmatlar samaradorligiga ta'siri umumlashtirildi. Solishtirma tahlil yordamida rivojlangan mamlakatlar tajribasi O'zbekiston amaliyoti bilan qiyoslandi, empirik bosqichda esa bank, transport, sog'liqni saqlash va turizm xizmatlari bo'yicha statistik ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Yakunda ekspert baholari va konseptual modellashtirish orqali xizmatlar sifatini oshirishning yangi nazariy modeli ishlab chiqildi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmon: <https://lex.uz/docs/-5030957>

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sharoitida xizmatlar sifatini oshirishda raqamli transformatsiya jarayonlarining muvaffaqiyatli kechishi, avvalo, davlat siyosati va tartibga solish mexanizmlarining samaradorligiga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrda "Elektron hukumat to'g'risida"gi O'RQ-395-sonli² Qonun, Prezident farmonlari va Hukumat qarorlari mamlakatda raqamli xizmatlar ekotizimini huquqiy jihatdan mustahkamlab bermoqda. Davlatning institutsional mexanizmlari quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda:

normativ-huquqiy baza yaratish – xizmatlar sektorida raqamli standartlar, sertifikatlash va akkreditatsiya tizimining joriy etilishi;

tartibga solish va nazorat – raqamli xizmatlar sifatini oshirish, xavfsizlikni ta'minlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish;

raqamli infratuzilmani rivojlantirish – milliy ma'lumotlar markazlari, elektron to'lov tizimlari va "my.gov.uz" kabi yagona davlat portallarining kengaytirilishi.

Mazkur siyosiy mexanizmlar xizmatlarning tezkorligi, shaffofligi va samaradorligini ta'minlash bilan birga, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini bermoqda.

Xizmatlar sifatini oshirish jarayonida davlat bilan bir qatorda xususiy sektorning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari orqali xususiy investitsiyalarni jalb etish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilish hamda zamonaviy boshqaruv uslublarini shakllantirish mumkin bo'lmoqda. Jumladan:

telekommunikatsiya va IT kompaniyalari – davlat bilan hamkorlikda elektron xizmatlar platformalarini yaratmoqda;

bank va moliya institutlari – DXSh asosida fintex xizmatlarini keng joriy qilmoqda;

transport va logistika sohasi – raqamli chipta tizimlari va GPS asosidagi kuzatuv xizmatlarini rivojlantirmoqda.

Natijada, DXSh mexanizmlari xizmatlar sifatini oshirishda moslashuvchan tashkiliy tuzilma va innovatsion yondashuvlarni shakllantirish imkonini bermoqda.

O'zbekistonning ayrim sohalarida raqamli transformatsiya asosida xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha sezilarli ijobiy natijalar kuzatilmoqda:

bank sohasi – onlayn to'lov tizimlari, mobil ilovalar va elektron kreditlash amaliyoti mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligini oshirmoqda;

transport sohasi – "uzrailway" va "uzairways" platformalari orqali raqamli chipta sotish tizimlari qulaylik yaratmoqda;

sog'liqni saqlash sohasi – "my.med.uz" portali orqali onlayn navbat, elektron retsept va telemeditsina xizmatlari yo'lga qo'yildi;

turizm sohasi – "E-visa" tizimi, onlayn bronlashtirish platformalari va virtual gid xizmatlari xalqaro turistlar oqimini oshirmoqda.

Mazkur tajribalar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya xizmatlar sifatini oshirishda iste'molchi bilan interaktiv aloqalar, avtomatlashtirilgan jarayonlar va tashkiliy yangiliklar orqali yuqori samaradorlikka erishish imkonini bermoqda.

1-jadval. Xizmatlar sifatini oshirishda asosiy mexanizmlar va ularning natijalari

Yo'nalish	Asosiy mexanizmlar	Natijaviy ta'sir	Misollar
Davlat siyosati va tartibga solish	Normativ-huquqiy baza, nazorat va infratuzilma	Huquqiy asos, shaffoflik, tezkorlik	"Elektron hukumat", "my.gov.uz"
Xususiy sektor va DXSh	Investitsiyalar, innovatsion texnologiyalar, sheriklik	Xizmatlar samaradorligi va moslashuvchanligi	Fintex, GPS-logistika, IT platformalar
Sohaviy tajribalar	Raqamli xizmatlar joriy etish	Mijozlar ehtiyojini qondirish, iste'molchi qoniqishi	E-visa, telemeditsina, raqamli chipta

Xizmatlar sifatini oshirishda raqamli transformatsiya jarayonlari davlat siyosati, xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik, shuningdek, sohaga oid amaliy tajribalar uyg'unligi orqali samarali natija bermoqda. Avvalo, davlat siyosati va tartibga solish mexanizmlari institutsional asos sifatida xizmat qiladi. Normativ-huquqiy baza yaratish, sifat standartlarini joriy etish, nazorat tizimlari va raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali xizmatlarning shaffofligi, tezkorligi va iste'molchi huquqlarini himoya qilish darajasi oshadi. Bu jarayon Douglass Northning institutsional iqtisodiyot nazariyasi bilan hamohang bo'lib, barqaror institutlar xizmatlar sifatining kafolati hisoblanadi.

2 O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrda "Elektron hukumat to'g'risida"gi O'RQ-395-sonli Qonun: <https://lex.uz/docs/-2833860?ONDATE=11.06.2016&ONDATE2=21.04.2021&action=compare>



Ikkinchidan, xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari xizmatlar samaradorligini oshirishda moslashuvchan tashkiliy asos yaratadi. Xususiy investitsiyalarni jalb etish, fintex va IT yechimlarini joriy etish orqali xizmatlar diversifikatsiyasi ta'minlanadi. Bu nafaqat moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi, balki zamonaviy boshqaruv va innovatsion yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi. Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan public-private partnership (PPP) konsepsiyasi bilan uyg'un bo'lgan ushbu mexanizm O'zbekistonda xizmatlar sifatini oshirishning muhim vositasiga aylanmoqda.

Uchinchidan, sohaviy tajribalar raqamli transformatsiyaning amaliy natijalarini namoyon etmoqda. Bank sektorida onlayn to'lov tizimlari va mobil ilovalar, transportda raqamli chipta sotish, sog'liqni saqlashda telemeditsina va elektron retsept tizimlari, turizm esa E-visa va onlayn bronlashtirish xizmatlari mijozlarga qulaylik yaratmoqda. Bu yondashuv "customer-centric services" konsepsiyasiga mos bo'lib, iste'molchi ehtiyojlariga yo'naltirilgan xizmat modelini shakllantiradi.

Umuman olganda, davlat siyosati xizmatlar sifatini kafolatlaydigan institutsional asosni yaratadi, xususiy sektor va DXSh mexanizmlari xizmatlar samaradorligini oshiruvchi tashkiliy moslashuvchanlikni ta'minlaydi, sohaga oid tajribalar esa iste'molchi ehtiyojiga yo'naltirilgan innovatsion xizmatlar modelini shakllantiradi. Shu tarzda raqamli transformatsiya xizmatlar sifatini oshirishda kompleks "institutsional-tashkiliy uyg'unlashuv" mexanizmini yuzaga keltirmoqda.

2-jadval. Xizmatlar sifatini oshirishda raqamli transformatsiya tajribasining sohalar bo'yicha taqqoslanishi

Soha	Joriy etilgan raqamli xizmatlar	Ilmiy mazmuni	Natijaviy ta'sir	Cheklov va muammolar
Bank	Onlayn to'lov tizimlari, mobil banking, elektron kreditlash	Moliyaviy texnologiyalar (fintech) xizmat ko'rsatishni tezlashtiradi va iste'molchi uchun qulay muhit yaratadi.	Tezkor to'lovlar, moliyaviy inklyuziya oshishi	Kiberxavfsizlik muammolari, raqamli savodxonlik yetishmasligi
Transport	Raqamli chipta sotish tizimlari, GPS asosidagi kuzatuv xizmatlari	Transport xizmatlarida avtomatlashtirish va monitoring samaradorlikni ta'minlaydi.	Yo'lovchilarga qulaylik, logistika xarajatlarining kamayishi	Qamrov hududlarining chegaralanganligi, texnik nosozliklar
Sog'liqni saqlash	Onlayn navbat, elektron retsept, telemeditsina	"E-health" konsepsiyasi orqali sog'liqni saqlash tizimi innovatsion asosda modernizatsiya qilinadi.	Tezkor xizmat, aholi uchun tibbiy yordamning qulayligi	Ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi masalalari
Turizm	E-visa, onlayn bronlashtirish, virtual gid xizmatlari	Turizm raqamli texnologiyalar xalqaro integratsiyani kuchaytiradi.	Turistlar oqimining oshishi, xizmatlar diversifikatsiyasi	Platformalarning cheklanganligi, xorijiy tillar bo'yicha kamchiliklar

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya har bir sohada xizmatlar sifatini oshirishga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Bank sektorida fintex xizmatlari orqali moliyaviy inklyuziya kengaymoqda, biroq kiberxavfsizlik muammolari mavjud. Transport sohasida raqamli chipta tizimlari yo'lovchilar uchun qulaylik yaratmoqda, lekin texnik nosozliklar va qamrov hududlari bilan bog'liq cheklovlar sezilmoqda. Sog'liqni saqlashda telemeditsina va elektron retseptlar tezkor tibbiy yordam imkonini oshirmoqda, ammo shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Turizm sohasida esa E-visa va onlayn bronlashtirish tizimlari xalqaro turistlar oqimini kuchaytirib, xizmatlarni diversifikatsiya qilmoqda, lekin xorijiy tillarda xizmat ko'rsatishdagi kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

Ilmiy jihatdan bu tajribalar "raqamli xizmatlar ekotizimi"ning bosqichma-bosqich shakllanayotganini tasdiqlaydi. Har bir sohada raqamli transformatsiya xizmatlar samaradorligini oshirayotgan bo'lsa-da, ularning barqarorligi uchun institutsional kafolatlar, xavfsizlik tizimlari va kadrlar salohiyatini oshirish zarur bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida xizmatlar sifatini oshirishda raqamli transformatsiya jarayonlari institutsional va tashkiliy mexanizmlarning uyg'unlashuvi orqali samarali natija bermoqda. Avvalo, davlat siyosati va tartibga solish mexanizmlari xizmatlar sifatining huquqiy kafolatini yaratib, ularning shaffofligi va tezkorligini ta'minlamoqda. Xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari esa raqamli xizmatlarda investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirishda muhim o'rin tutmoqda.



Bank, transport, sog'liqni saqlash va turizm sohalaridagi amaliy tajribalar raqamli xizmatlarning mijozlarga qulaylik, samaradorlik va xalqaro integratsiyani ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi, texnik infratuzilma va kadrlar salohiyati bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lib, ular davlat siyosati va institutsional hamkorlik orqali izchil hal etilishi lozim.

Ilmiy-amaliy jihatdan, tadqiqot natijasida xizmatlar sifatini oshirishda raqamli transformatsiyaning samaradorligini ta'minlaydigan "institutsional-tashkiliy uyg'unlashuv modeli" taklif etildi. Mazkur model davlat siyosati, xususiy sektor tashabbuslari va sohaga oid innovatsion tajribalarni integratsiya qilgan holda xizmatlar sifatini jahon standartlariga moslashtirish hamda aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–6079-son Farmoni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
3. Karimov A., Rustamov B. Raqamli iqtisodiyot va xizmatlar sohasi rivojlanishi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
4. Ahmedov M. Sog'liqni saqlash xizmatlarida telemeditsina tizimini joriy etishning samaradorligi. – Toshkent: Fan, 2021.
5. World Bank. Digital Transformation for Development. – Washington, DC, 2021.
6. UNCTAD. Digital Economy Report 2023: Cross-border Data Flows and Development. – Geneva: United Nations, 2023.
7. Porter M. E., Heppelmann J. E. How Smart, Connected Products Are Transforming Companies. – Harvard Business Review, 2015, №93(10), pp. 96–114.
8. Brynjolfsson E., McAfee A. Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future. – New York: W. W. Norton & Company, 2017.
9. North D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
10. OECD. Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives. – Paris: OECD Publishing, 2019.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100